Boshlang’ich sinflarda chet tilini o’qitishning zamonaviy metodlari. Sun’iy intellekt tushunchasi

Jumazoda Shohidai Jaloliddin
Urganch State University, Uzbekistan
jumazodashohida@gmail.com

Abstrakt: Texnologiya butun dunyo bo'ylab turli darajadagi tillarni o'rganishning bir qismidir. Til o‘rganish texnologiyalaridagi innovatsiyalar motivatsiyani saqlab, o‘zlari kutgan natijalarga erishadigan ko‘proq mustaqil o‘quvchilarni yaratishga yordam beradi. Ushbu maqola ingliz tilini innovatsion usullar orqali o‘rgatish va boshlang‘ich maktablarda til o‘rgatishda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari haqida yozilgan.

Kalit so’zlar: intellekt, Netflix, Spotify, GPS, ilovalar, Masaru Ibuka, internet, metod, strategiya.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi yangiliklar, adabiyotlar va davlatlar aro hamkorliklarda chet tilini bilish yuqori ko’rsatkichlar bilan bir qatorda muvoffaqiyatlarga olib kelmoqda. Bu esa tabiiy ravishda chet tiliga bo’lgan talabni kun sayin o’sib borayotganligidan darak beradi. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta‘lim muassasalari va maktablarda, keyinchalik oliy ta’lim dargohlarida, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq.

Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur "Ushdan keyin juda kech" kitobida yozganidek: "...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...". Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushinib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning unchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirip qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi . Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin :

- Ko'rish orqali eslab qolish . Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan ma'lumotlaridan ko'ra, ko'proq ko'rgan predmetlarini eslab qoladi. Shunday ekan , darsni turli xil ko'rgazmali qurollar, plakatlar orqali, ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa, buyumlarga yozish orqali yangi so'zlarni o'rgatish va o'rgangan yangi so'zlari ishtirokida gaplar tuzish . Masalan, kitob (book), stol (table), doska (blackboard) , ruchka (pen), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan bunday narsa-buyumlar ko'zga doimo tushib turishi va doimo qo'llanishi bois, bola bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadi .

- Qo'shiq va she'rlar orqali tushinish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin .

- TO raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi . Bunda bolalar o'qituvchi bergan turli xil topshiriqlarni bajaradi . Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: " Insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi".

- Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin . Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

- Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlarni ko'rishga qiziqadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilim qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

- Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish; Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi. Quyidagi o'yinlar so'zimizga misol bo'la oladi.

- "Quvnoq topishmoqlar"(Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati, yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich zamonaviy texnologiyalar “sun’iy intellekt” orqali o'rgatish yaxshi natija beradi.

"Sun'iy intellekt" tushunchasini aniqlash qiyin, garchi uni mashinalar yordamida amalga oshiriladigan aql deb tushunish mumkin. Tabiiy aqldan farqli o'laroq, u ong yoki hissiyotlarni o'z ichiga olmaydi.

Sun'iy intellekt - bu o'z muhitini idrok eta oladigan va o'z maqsadlariga erishish ehtimolini maksimal darajada oshirish uchun aniq harakatlar bilan javob beradigan har qanday hisoblash moslamasi… Ular nima bo'lishidan qat'iy nazar, Internetda sayr qilishda bizga qaysi reklamalarni ko'rsatishni bilishdan, bemorlarda saraton kasalligini aniqlash uchun klinik dasturlarga, kompyuterga qarshi shaxmat yoki avtonom avtomobillarning kelajagi kabi strategik o'yinlargacha.

Shu ma'noda, sun'iy intellekt - bu kognitiv imkoniyatlarga ega bo'lgan, odamnikiga o'xshash mashinalar yaratish uchun mo'ljallangan algoritmlardan foydalanishning hisoblash natijasi. Va bu biroz olis bo'lib tuyulsa -da, bu bizning hayotimizda kundan -kunga: Google, ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, elektron tijorat (Amazon sizning profilingizga asoslangan mahsulotlarni tavsiya qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanadi), onlayn ko'ngilochar xizmatlar (Netflix yoki Spotify kabi), GPS ilovalari, Tibbiyot, mobil yuzni aniqlash, robotlar bilan suhbat kabi ko’rinisharda namoyon bo’lmoqda.

Biz borgan sari aqlli mashinalar bilan o'ralgan holda yashaymiz va hayotimizni yaxshi yoki yomon belgilaydigan kompyuter olamiga singib ketamiz. Shunday ekan, hosh nima uchun biz bu kabi ulkan kuchga ega tizimdan til o’rganish va o’rgatishda maksimal darajada foydalanmasligimiz kerag?

Barchamizga ma’lumki, bugungi zamon yoshlari internet tarmoqlari va mobil aloqa tizimlaridan turli maqsadlarda foydalanishmoqda, xoh u zararli bo’lsin yoki foydali. Ota-onalar esa bu kabi tarmoq hujumlaridan farzandlarini yetarlicha cheklay olishmayapti. O’z psixologik algoritmiga ega ilovalar esa kelajak avlodni o’z domiga tortib borayapti. Ulardagi bu qiziqishni pedagoglar to’g’ri yo’naltirib, sun’iy intellect tizimlaridan foydalangan holda, davr talabi bo’lgan chet tillarini o’zlashtirishga qaratsa maqsadga muvofiq bo’lardi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinflarda sun’iy intellekt tizimlari orqali ingliz tilini bosqichma-bosqich o’rgatish metodikasini ishlab chiqish orqali biz pedagog va o’quvchi bilan sodir bo’layotgan bazi muammolarga yechim topgan, shu bilan birga til o’rganishni vaqt va sifat ko’rsatkichlarini ijobiy yo’nalishga o’zgartirgan bo’lamiz. Kelajakdagi zamonaviy o’qitish metodikasi deganda har qanday sharoitda, masofadan boshqariladigan va birgina yuklab olish hamda ulanish orqali kerakli bilimni o’zlashtirish imkoniyatini beruvchi ilovalarni tushunmog’imiz darkor. Bu kabi sun’iy

intellekt tizimlaridan kengroq foydalanishimiz esa jahon talablariga most ravishda u bilan hamnafas bo'lish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. John Adams ‖ Analysis of retirement age in different countries of the world.London 2017.
2. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora –tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son)‖Xalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
3. J. Jalolov . ―ingliz tilini o'qitish metodlari‖ ―O'qituvchi‖ nashiryoti Toshkent To'Xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022). TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.
4. Тухтасинова, Н. Р. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ТАГМАНСКИХ СОБЫТИЙ НА РАБОТАХ АБДУЛЛЫ КАХХАР. Экономика и социум, (2-2), 240-244. 5
5. Pratova, G. O., & To'Xtasinova, N. R. Q. (2022). O'ZBEK TILIDA FREZEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK SINONIMYASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 35-38